



O'ZBEKISTONDA XALQARO AUDIT STANDARLARI (XAS) NI QO'LLASH IMKONIYATLARI

BAXRIDDINOV NAVRO'Z FAHRIDDIN O'G'LI

Annotatsiya: Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi bosqichida davlat sektoridagi ichki audit jarayonlarini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqotda davlat sektorida ichki auditning hozirgi holati tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlangan, xalqaro va mahalliy qonunchilik hamda normativ hujjatlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Ichki audit, davlat sektori, samaradorlik, korrupsiya, moliyaviy nazorat, risklar, tavsiyalar.

Abstract: At the new stage of global economic development, this research focuses on improving internal audit processes in the public sector and enhancing its efficiency. The current state of internal audit in the public sector has been analyzed, existing issues identified, and international and local legislation, as well as regulatory documents, have been studied.

Key words: Internal audit, public sector, efficiency, corruption, financial control, risks, recommendations.

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish maqsadida, davlat sektorida ichki nazorat va audit jarayonlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biriga aylangan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda Harakatlar strategiyasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, korrupsiya va boshqa noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirish




asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu esa davlat moliyaviy nazorat tizimining, shu jumladan ichki auditning ahamiyatini yanada oshirdi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ichki audit tizimini rivojlantirish bo‘yicha bir qator qonunchilik va tashkiliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2018 yilda qabul qilingan “Davlat moliyaviy nazorati to‘g‘risida”gi Qonun, davlat sektoridagi tashkilotlarda ichki audit tizimini kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu qonun davlat tashkilotlari faoliyatini yanada shaffof va samarali qilishni ko‘zda tutadi. Shuningdek, 2020 yilda qabul qilingan “Davlat xizmati to‘g‘risida”gi qonun ham ichki auditni davlat xizmatidagi faoliyatni nazorat qilish vositasi sifatida mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA VA TAHLIL

«Audit (auditing) – bu dahlsiz, kompetent xodim tomonidan axborotlarni belgilangan mezonlarga mosligini aniqlash va xolisona xulosa berish maqsadida xo‘jalik tizimi to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash va baholash jarayoni».

Auditning mohiyati – bozor iqtisodiyoti sharoitida uning ob'ektiv iqtisodiy taraqqiyot qonunlari, kategoriyalari, xalqaro hamjamiyatda tan olingan hamda ayrim mamlakatda amal qilayotgan normativ hujjatlarning talablariga mos tekshiruv ob'ektida uning barcha faoliyatlari raqamlar yordamida ifodalangan, maxsus tizim asosida xulosa va takliflar berishdan iborat. Auditorlik faoliyati maxsus auditorlik tashkilotining boshqa yuridik shaxslarga ko‘rsatayotgan xizmatlarining majmuasi, shuningdek xo‘jalik yurituvchi sub'ektning maxsus bo‘limlari yoki xodimlarining tasdiqlangan Nizomlarga ko‘ra yuritayotgan ish faoliyati hisoblanadi. Auditorlik tashkilotlarining bunday faoliyatlari shartnomalar asosida amalga oshirilganligi uchun ham u tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Xo‘jalik yurituvchi sub'ektning maxsus audit bo‘limi yoki ichki auditorlarining tasdiqlangan Nizomlarga ko‘ra yuritayotgan ish faoliyati tadbirkorlik faoliyati hisoblanmaydi, balki ularning kasbiy ishlari hisoblanadi.



1.1.-rasm. Auditning asosiy komponentlari

Manba: Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

Ichki nazorat – bu xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy–xo‘jalik faoliyatini rahbariyat tomonidan tasdiqlangan maxsus Nizom asosida doimiy nazorat qilib boruvchi bo‘limning yoki xodimning (xodimlarning) ish faoliyati. Bunday nazoratni ichki audit bo‘limi yoki ichki auditorlar olib borishlari mumkin.

Tashqi nazorat – bu mustaqil auditorlik tashkilotlarining shartnoma asosida korxonalarda yuz bergan hodisa va jarayonlarni, ularning natijalarini qonunlar va boshqa normativ hujjatlarga mosligini tekshirish bo‘yicha olib borgan ish faoliyati.

Iqtisodiy tahlil – bu moliyaviy hisob va hisobot ma‘lumotlari asosida korxonalarning moliyaviy–xo‘jalik faoliyati va uning natijalarini qo‘yilgan maqsad va talablar bo‘yicha dinamik va statik jihatdan izohlab berish bo‘yicha olib borilgan ish faoliyati.

Ekspertiza – tuzilgan buxgalteriya hisobi hujjatlari, hisob registrlari va moliyaviy hisobotlarni qonunlar va boshqa normativ hujjatlar talablariga mos kelish darajasiga baho berish bo‘yicha olib borilgan ish faoliyati.



Inventarizatsiya – bu korxona aktivlari va majburiyatlarining haqqoniy mavjud holatini aniqlash, ularni hisob ma’lumotlariga mos kelishligini belgilash bo’yicha amalga oshirilgan ish faoliyati.

Xulosa va takliflar – bu tekshiruv natijalari bo’yicha tekshiruvni belgilagan shaxslarga faoliyatni yaxshilash, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish borasida fikr va mulohazalarni o’zida mujassamlashtirgan maxsus rasmiy hujjatni tayyorlashga doir ish faoliyati.

Konsalting – bu xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga ularni qiziqtiruvchi turli bilimlar va amaliy ko’nikmalar bo’yicha maslahatlarni berish bo’yicha olib borilgan ish faoliyati. Auditorlik tashkilotlari buxgalteriya hisobi va hisoboti, moliya, soliq solish, biznes rejalashtirish, menejment va boshqa sohalar bo’yicha xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga tuzilgan shartnomalar asosidagi konsalting faoliyatini olib borishlari mumkin.

Kasbiy xizmatlar – bu auditorlik tashkilotlarining shartnomalar asosida xo’jalik yurituvchi sub’ektlarga hisobni yuritib berish, uni tiklash, soliq deklaratsiyalarini tuzib berish, biznes rejasini tuzish va boshqa kasbiy ishlarni bajarib berish borasidagi ish faoliyati.

XX asrning birinchi yillarida moliyaviy hisobotlardan foydalangan korxonalar balansni kompaniyaning ishonchliligini belgilab beruvchi asosiy ko’rsatkich sifatida bilishardi. Shu sababli auditorlar o’z ishlarida ko’p hollarda asosiy e’tiborni balansga qaratar edilar. AQShda savdo bo’yicha Federal komissiya iltimosiga ko’ra Amerika buxgalter-ekspertlar instituti (bu institut bugungi kunda Amerika diplomga ega buxgalterlar instituti – AICPA deb yuritiladi) tomonidan tayyorlangan audit to’g’risidagi birinchi rasmiy qaror 1917 yilda chop etilgan bo’lib, “balanslar auditi”ga bag’ishlandi. Ushbu qarorning qayta ko’rib chiqilgan nashri 1929 yilda e’lon qilinib, “Moliyaviy hisobotlarni tekshirish” nomini oldi. Garchi ushbu risolada asosiy e’tibor hali ham balans auditiga qaratilgan bo’lsa-da, unda foyda va zararlar hisoboti to’g’risida batafsil fikr yuritilgan edi. Bu esa xo’jalik



operatsiyalari natijalariga qiziqish ortayotganligidan dalolat berar edi. 1929 yildagi nashrda bitimlar tuzish amaliyoti, shuningdek, ichki nazoratning muhimligi to'g'risida so'z bordi.

Asosiy Jihatlar	AQSH	Evropa
Auditorlik Standartlari	U.S. GAAP (Generally Accepted Accounting Principles)	IFRS (International Financial Reporting Standards)
Audit Turi	Ichki va tashqi audit	Ichki va tashqi audit
Auditorlik Tashkilotlari	PCAOB (Public Company Accounting Oversight Board)	EFAA (European Federation of Accountants and Auditors)
Audit Hisobotlari	10-K va 10-Q hisobotlari	Tashqi audit hisobotlari (Statutory Audit Reports)
Auditor Talablari	CPA (Certified Public Accountant) sertifikati	ACCA, CIMA, yoki AQF (Accounting Qualification Framework)
O'zaro Moslik	FASB va SEC qoidalari	EU Audit Directive (2006/43/EC)
Auditning Moliya Majburiyatlari	Federal va davlat daromad solig'i bo'yicha talablar	VAT (Value Added Tax) va korporativ soliq talablari
Auditorlik Malakalari	Ehtiyotkorlik va mustaqillik	Ehtiyotkorlik, mustaqillik va malakali ta'lim
Auditning Ahmiyati	Moliya hisobotlarini ishonchli qilish	Moliya shaffofligini va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash
Kelgusida Takliflar	Raqamli audit va sun'iy intellektni joriy etish	Barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olish

1-jadval. 2024 yilda AQSH va Evropa davlatlarida audit tizimining asosiy jihatlari

Manba: Muallif tomonidan mustaqil tuzilgan

1936 yilda “Mustaqil auditorlar tomonidan moliyaviy hisobotlarni tekshirish” deb nomlangan risola chop etildi. Bu risolaning mazmuniga so'nggi yillarda yuz bergan ko'plab voqealar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu voqealar orasida eng ahamiyatlisi bitimlar tuzish standartlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan AICPAning Nyu-York fond birjasi bilan hamkorlik munosabatlarining yo'lga qo'yilishi, shuningdek, 1933 yilda qabul qilingan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi va 1934 yilda qabul qilingan birjalar to'g'risidagi qonunlarning kuchga kiritilishi bo'ldi. Bu qonunlar ro'yxatdan o'tgan kompaniyalarga moliyaviy hisobotning tegishli shakllarini tuzishlarini talab qilar edi.

XULOSA

Ichki audit davlat sektorida moliya va resurslarni boshqarishning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon moliyaviy hisobotlar ishonchliligini ta'minlash va korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi. O'tkazilgan tadqiqotlar



ko'rsatdiki, ichki audit tadbirlarining samaradorligi ko'plab omillarga, jumladan, auditorlarning malakasi, metodologik asoslar va me'yoriy-huquqiy bazaning mavjudligiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022
2. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may. // Soliqlar va bojxona xabarлари, 2000 yil 13 iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi "Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida"gi PQ-615-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi "Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-907-sonli Qarori.